


### III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI


2022- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 24 610,4 mlrd so‘mni yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan 103,4 foizni, shu jumladan, dehqonchilik, chorvachilik va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 23 785,2 mlrd so‘mni (103,3 foiz), ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 0,6 mlrd so‘mni (102,7 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari - 166,0 mlrd so‘mni (102,2 foiz), baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari - 658,6 mlrd so‘mni (106,4 foiz) tashkil qildi.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o‘shish sur‘atlari**



Xususan, yuqori o‘shish sur‘ati Xiva shahrida (110,1 foiz), Qo‘shko‘pir (108,7 foiz), Yangibozor (104,6 foiz) va Gurlan (104,2 foiz) tumanlarida kuzatildi. Aksincha, eng past o‘zgarish Urganch tumanida (102,1 foiz) va Urganch shahrida (102,2 foiz) kuzatildi.


**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulot (xizmat)larining hududlar kesimida taqsimlanishi (foiz hisobida)**



Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida hududlar bo‘yicha yetakchilik qilayotgan tumanlarning ulushi Urganch tumanida- 11,3 foiz, Xonqa tumanida- 10,6 foiz, Gurlan tumanida- 9,9 foiz, Bog‘ot va Shovot tumanlarida - 9,6 foizni tashkil etdi. Xiva hamda Urganch shaharlari mos ravishda 0,3 va 2,3 foiz ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egalladi, eng kam ulush Xiva shahrida (0,3 foiz) qayd etildi.


Qishloq xo‘jaligi sohasida 2022- yilning yanvar- dekabr oylarida 23 304,0 mlrd. so‘mlik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘sishi 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,3 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 103,1 foizni va chorvachilik mahsulotlari 103,4 foizni tashkil qildi.

**2022- yilning yanvar- dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**  
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




Viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida eng katta ulushni dehqon va tomorqa xo‘jaliklari egallagan bo‘lib, 2022- yil yanvar- dekabr oylarida jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 67,4 foizini (2021- yil yanvar- dekabr oylarida – 72,0 foiz) tashkil qildi. Fermer xo‘jaliklari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 27,7 foizi ishlab chiqarilgan (2021- yil yanvar- dekabr oylarida 24,5 foiz), shuningdek, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 4,9 foizi (2021- yil yanvar- dekabr oylarida –3,5 foiz) ishlab chiqarilgan.

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilikning ulushi % da**



### Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




2022- yilning yanvar- dekabr oylarida 23 304,0 mlrd so‘mga teng bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 10 743,8 mlrd. so‘mga teng qismi yoki 46,1 foizi dehqonchilik, 12 560,2 mlrd. so‘mga teng qismi yoki 53,9 foizi chorvachilik sohasiga to‘g‘ri keladi.

2022- yilning yanvar- dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishda Tuproqqal‘a tumani (55,5 foiz), Xiva tumani (53,8 foiz), Yangibozor tumanida (53,3 foiz) yuqori ko‘rsatkich qayd etildi. Urganch shahrida (3,7 foiz), Xiva shahrida (28,1 foiz) dehqonchilik mahsulotlari salmog‘ining kamayganligi qayd etildi.

Shuningdek, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori ko‘rsatkichlari Urganch shahrida (96,3 foiz), Xiva shahrida (71,9 foiz), Hazorasp tumanida (61,7 foiz) qayd etildi.

## Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining hududlar hamda xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi




Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti ulushining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi. 2022- yilning yanvar- dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Yangibozor tumanida (38,8 foizi), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch va Xiva shaharlarida (98,5 va 90,1 foizi), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Xiva shahrida (9,9 foizi) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Yangiariq tumani (18,3 foizi) va Hazorasp tumanida (23,7 foizi), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Tuproqqal’a tumanida (54,8 foizi) hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urganch shahri hamda Shovot tumanlarida (1,5 foizi) qayd etildi.



**Dehqonchilik.** 2022- yilning yanvar- dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari umumiy hajmi 10 743,8 mlrd. so‘mni yoki jami yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 46,1 foizini tashkil qildi. 2021- yilning shu davriga nisbatan o‘shiruvchi tashkilotlarda 784,0 mlrd. so‘mni (107,8 foiz) tashkil qildi.

### Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni hududlar kesimida xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

**Hosil yig'imi.** 2022- yilning yanvar - dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 459 907 tonna jami don (106,6 foiz), shundan 290 297 tonna bugdoy (109,9 foiz), 144 530 tonna kartoshka (110,8 foiz), 636 877 tonna sabzavot (102,6 foiz), 159 766 tonna poliz (103,5 foiz), 158 555 tonna meva (103,4 foiz), 48 611 tonna uzum (104,5 foiz) yetishtirildi.




**Chorvachilik.** 2022- yilning yanvar- dekabr oylarida chorvachilikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmi 12 560,2 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan 103,4 foizni, jumladan, fermer xo'jaliklarida 577,3 mlrd. so'mni (103,4 foiz), dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 11 612,0 mlrd. so'mni (101,1 foiz), qishloq xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 370,9 mlrd. so'mni (2,3 m) tashkil qildi.

**Viloyat tumanlarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi (foiz hisobida)**



2023 - yilning 1 - yanvar holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 101,4 foizni (jami 961,7 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 101,1 foizni (365,1 ming bosh), qo'y va echkilar 102,9 foizni (485,1 ming bosh), otlar 101,5 foizni (5,8 ming bosh), parrandalar 106,8 foizni (6518,0 ming bosh) tashkil qildi.


### 2023- yil 1- yanvar holatiga chorva mollari bosh sonlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go'sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o'sishi asosan dehqon va fermer xo'jaliklari hisobiga bo'lib, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 95,6 foizni, sut ishlab chiqarishda 99,4 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 79,3 foizni tashkil etdi.



## Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



## 2023- yil 1- yanvar holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	ming bosh	o'sish sur'ati, %
<b>Yirik shoxli qoramol</b>	<b>961,7</b>	<b>101,4</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	72,0	104,8
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	877,8	100,9
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	11,9	126,6
<b>ulardan: sigirlar</b>	<b>365,1</b>	<b>101,1</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	30,4	99,7
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	330,4	100,9
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	4,3	134,4

	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
<b>Qo'y va echkilar</b>	<b>485,1</b>	<b>102,9</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	<b>79,9</b>	<b>112,9</b>
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	380,5	100,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	24,7	111,3
<b>Otlar, bosh</b>	<b>5815</b>	<b>101,5</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	779	105,3
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4979	100,9
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	57	103,6
<b>Parrandalar</b>	<b>6518,0</b>	<b>106,8</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	988,8	111,1
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	3919,1	100,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	1610,1	123,1


**2022- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan  
chorvachilik mahsulotlari**

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
<b>Go'sht (tirik vaznda), ming tonna</b>	<b>174,6</b>	<b>104,8</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	6,2	115,3
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	160,8	100,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	7,6	7,4 m.
<b>Sut, ming tonna</b>	<b>1097,4</b>	<b>102,4</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	55,3	117,8

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	1036,0	101,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	6,1	111,9
<b>Tuxum, mln dona</b>	<b>478,9</b>	<b>104,3</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	44,2	109,9
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	335,6	102,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	99,1	108,1
<b>Jun, tonna</b>	<b>1223</b>	<b>104,4</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	132	122,2
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	1074	102,0
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	17	154,5
<b>Qorako'l teri, dona</b>	<b>10475</b>	<b>84,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	791	115,0
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	9620	81,7
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	64	-

2022- yilning yanvar- dekabr oylarida fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 6 447,9 mlrd.so'mni yoki 2021- yilning tegishli davriga nisbatan 105,6 foizni tashkil qildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi 27,7 foizni tashkil etdi.

## Fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining yo'nalishlar bo'yicha taqsimlanishi (foizda)



2023- yilning 1- yanvar holatiga fermer xo'jaliklarida 72,0 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan, 30,4 ming bosh sigir, 79,9 ming bosh qo'y va echki, 779 bosh ot, 988,8 ming bosh parranda mavjud bo'lib, 2022 - yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 104,8 foizni, shu jumladan, sigirlar 99,7 foizni, qo'y va echkilar 112,8 foizni, otlar 105,3 foizni, parrandalar 111,1 foizni tashkil qildi.


### 2022 - yilning yanvar-dekabr oylarida fermer xo'jaliklarida asosiy turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish

	<i>yanvar-dekabr</i>				<i>2021-yanvar-dekabr oylariga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2021- yil</i>		<i>2022- yil</i>		
	<i>tonna</i>	<i>ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz</i>	<i>tonna</i>	<i>ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz</i>	
Sabzavot	114917	18,5	116780	18,3	101,6
Go'sht, tirik vaznda	5342	3,2	6159	3,5	115,3
Sut	46933	4,3	55286	5,0	117,8
Tuxum, <i>ming dona</i>	40259	8,7	44232	9,2	109,9
Jun, <i>tonna</i>	108	9,2	132	10,8	122,2
Qorako'l, <i>dona</i>	688	5,5	791	7,6	115,0

**2022 - yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish**


**Jami don (tonna)**

*Jami viloyat bo'yicha*  
**459 907**




**Boshqli don (tonna)**

*Jami viloyat bo'yicha*  
**294 498**




**Bug'doy (tonna)**

*Jami viloyat bo'yicha*  
**290 297**



**Kartoshka (tonna)**


*Jami viloyat bo'yicha*  
**144 530**



**2022 - yilning yanvar- dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish**


**Sabzavot (tonna)**

*Jami viloyat bo'yicha*  
**636 877**




**Poliz (tonna)**

*Jami viloyat bo'yicha*  
**159 766**




**Meva va rezavorlar (tonna)**  
*Jami viloyat bo'yicha* **158 555**



**Uzum (tonna)**

*Jami viloyat bo'yicha*  
**48 611**





2023- yil 1- yanvar holatiga hududlar kesimida  
chorva mollari va parrandalar bosh soni

Yirik shoxli qoramollar (*bosh*)  
Jami viloyat bo'yicha 961 745





shu jumladan, sigirlar (*bosh*)  
Jami viloyat bo'yicha 365 050



Qo'ylar va echkilar (*bosh*)  
Jami viloyat bo'yicha  
485 059




Parrandalar (*ming bosh*)  
Jami viloyat bo'yicha  
6518,0




2022 - yilning yanvar- dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


**Go'sht (ming tonna)**  
**Jami viloyat**  
**bo'yicha 174,6**




**Sut (ming tonna)**  
**Jami viloyat**  
**bo'yicha 1097,4**



**Tuxum (mln dona)**  
**Jami viloyat**  
**bo'yicha 479,0**




**Jun (tonna)**  
**Jami viloyat bo'yicha**  
**1223**





**Baliq (tonna)**  
**Jami viloyat**  
**bo'yicha 29565,5**



**Statistik ko'rsatkichlarga izohlar**

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Dehqonchilik mahsuloti** – hisobot davrida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko'p yillik yosh ko'chatlarni o'stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlarining o'zgarishi yig'indisidir.

**Chorvachilik mahsuloti** – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o'stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish qiymatlarini o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

**O'rmon xo'jaligi** – o'rmon va o'rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. O'rmon xo'jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o'rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong'inga qarshi dasturlarni ishlab chiqish kiradi. O'rmon xo'jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag'ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko'chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o'suvchi qo'ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong'oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

**Baliqchilik xo'jaligi** – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohaslarining mahsuloti va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini, shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko'paytirish va yaxshilashni o'z ichiga oladi.

**Fermer xo'jaliklari** - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.